



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

2(2)
2022



MUNDARIJA

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	6
Омилхон ИСМАЙЛОВ, Александр ПОЛОННИКОВ, Мухиддин БАФАЕВ. Инновационно-ориентированное педагогическое образование Республики Узбекистан: стратегия и тактика развития	6
Shaxlo NURULLAYEVA. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy moslashtirish mexanizmlari.....	12
Nargiza DILOVA, Kimyoxon RAJABOVA. O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati	19
Jetkerbay OTEPBERGENOV. Talabalarning murakkab o'quv materiallarini o'zlashtirishda chizmatasviriy modellardan foydalanish mahorati.....	22
Shabon FARMONOVA. Boshlang'ich sinflarda ta'lim mazminini yangilash va ona tili o'qitishni ijodiy tashkil etish	26
Ne'mat SEVINCHOV, Maftuna HALIMOVA. Pedagogik o'lchovlarning tarkibiy qismlari va ularga qo'yiladigan talablar.....	32
Умида МУПТАЗАЕВА. Особенности развития учебно-исследовательских компетенций студентов высших образовательных учреждений в условиях кредитной системы.....	38
Ixtiyor XOLIQOV. Bo'lajak o'qituvchining asosiy kompetentligini rivojlantirish	43
Xasan SIDDIKOV. Oliy ta'limda tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishning innovatsion shakllari.....	46
Muattar ABDULLAXO'JAYEVA. Zamonaviy o'qituvchining pedagogik kompetentligini rivojlantirish.....	50
Perdexan SALIYEVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ayrim muammolar va yechimlar	52
MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	55
Shuhrat NE'MATOV, Nargiza MIRYUSUPOVA. Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarlarining kvalitologik kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari	60
Асрор ҚОСИМОВ. Бошланғич таълимда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этиш – долзарб педагогик муаммо сифатида	62
Maftuna MAMEDOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli.....	67
Dildora OMONOVA. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kompetentsiyasini shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida.....	70
Manzura KASIMOVA. Maktabgacha ta'limda jonli va jonsiz tabiat bilan tajriba o'tkazishda laboratoriya xonalarini tashkil etish	74
Gulzoda ERGASHEVA. Steam ta'lim texnologiyasi asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish imkoniyatlari.....	78
Азиза ХУСЕНОВА. Моделирование обучения родному языку путём проектирования образования	82
Шакаржон ҚЎЧҚОРОВА. Бошланғич синф ўқувчиларида таянч компетенцияларни шакллантириш долзарб методик муаммо сифатида	90
Дилшод ДАВРОНОВ. Бошланғич синф ўқиш дарсларида бадиий матн устида ишлашда адабий тушунчаларни шакллантиришнинг илмий-назарий асослари	95
Sobirjon ISMATOV. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o'stirish metodikasi	100
FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH	105
Qahramon TO'XSANOV. "Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbek adabiyotiga ta'siri.....	105
Mexriniso ABUZALOVA, Shahnoza ISLOMOVA. Tibbiyot tili va tibbiy matnlarning psixolingvistik xususiyatlari	111
Илона ИСПАЙЛОВА. Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов.....	117
Intizor JUMANIYOZOVA. Abdulla Oripov she'riyatida falsafiy-intellektuallik va ekspressivlikning ifodalanishi.....	124
ANIQ VA TABIIY FANLAR	127
Mirzohid DAMINOV, Sabohat HALIMOVA. O'zbekiston, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston umumiy o'rta ta'lim maktablari 7-sinf fizika darsliklarining qiyosiy tahlili	127

Mexriniso ABUZALOVA
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori

Shahnoza ISLOMOVA
Buxoro davlat universiteti
lingvistika (o'zbek tili) mutaxassiligi
2-bosqich magistranti
shahnozaislomova97@gmail.com

TIBBIYOT TILI VA TIBBIY MATNLARNING PSIXOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Maqolada tilshunoslikning tibbiyot bilan faol integratsiyalashuvini ta'minlash, tibbiy birliklarning lingvistik xususiyatlarini ochib berish, ularning inson psixologiyasiga ta'siri masalalari, tibbiy lingvistik birliklarni badiiy matnlardan aniqlash hamda matniy lingvistik xususiyatlarini tadqiq etish xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, tibbiy matn, tibbiy birliklar, shifokor nutqi, tibbiyot tili, tibbiyot terminologiyasi, tibbiy paremlar.

В статье обсуждается активная интеграция лингвистики с медициной, раскрытие лингвистических особенностей медицинских единиц, идентификация медицинских лингвистических единиц из литературных текстов и изучение текстовых лингвистических особенностей.

Ключевые слова: лингвистика, медицинский текст, медицинские подразделения, речь доктора, медицинский язык, медицинская терминология, медицинская парема

The article discusses the active integration of linguistics with medicine, the disclosure of the linguistic features of medical units, the identification of medical linguistic units from literary texts, and the study of textual linguistic features.³¹

Keywords: linguistics, medical text, medical units, doctor's speech, medical language, medical terminology, medical paremas.

Muayyan xalqning o'zligi, dunyoqarashi, tafakkuri, turmush tarzi, o'tmishi va kelajagini aks ettirishda ona tilining o'rni beqiyos. Tilning lisoniy imkoniyatlaridan amaliy foydalanish, tilshunoslikning qator fanlar bilan aloqasini o'rganish natijasida nutqning serqirraligi yaqqol namoyon bo'ldi. Tilning bunyodkorlik vazifasi, amaliy ahamiyati tilshunoslikning qator fanlar bilan integratsiyalashuvi natijasida ochib berildi. Natijada, qator soha lingvistikalari shakllandi: psixolingvistika, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, lingvokulturologiya, tibbiy lingvistika va boshqalar.

"Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofliğini saqlash, uning lug'at boyligini oshirish, turli sohalarida zamonaviy atamalarining o'zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo'llanishini ta'minlash dolzarb vazifa bo'lib turibdi... Yana bir muhim vazifa fundamental tadqiqotlar, sanoat, bank-moliya tizimi, yurisprudensiya, diplomatiya, tibbiyot va boshqa tarmoqlarda davlat tilini to'laqonli qo'llash bilan bog'liq" [1.B.3] ekan, tibbiy birliklarlarning ma'noviy, vazifaviy, uslubiy xususiyatlarini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda tibbiyot tilshunosligi, tibbiy lingvistika deb ataladigan yangi fan tarmog'i rivojlanib bormoqda. Tibbiyot tili tibbiyot tarixchilari uchun ham, tilshunoslar uchun ham dolzarb masalalarni hal etmoqda. Klassik olimlar

eng qadimgi tibbiy yozuvlarning mazmuni va tilini batafsil tahlil qildilar, bugungi kunda esa tibbiy lingvistikaning, tibbiy terminologiyaning keyingi rivojlanishi tilshunosligimizning yutug'idir.

Ma'lumki, **tibbiyot** (meditsina, tabobat) — insonlar sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, umrni uzaytirish, kasalliklarning oldini olish, davolash haqidagi bilimlar va shu sohadagi amaliy tadbirlar majmuyi hisoblanadi. Tibbiyot tabiiy fanlar (biologiya, fizika, kimyo) va ijtimoiy fanlar hamda texnika bilan chambarchas bog'langan.

Zamonaviy tibbiyotning kelib chiqishi va taraqqiyot bosqichi qadim tarixning turli davrlaridagi dunyoqarashlarni qamrab oladi. Ayonki, turli kasalliklar, ularni davolash va oldini olish haqidagi bilimlar asosi qadimdan kishilarning tajriba va kuzatishlariga bog'liq bo'lgan. Tibbiyotning xalq tabobatidan mustaqil fan darajasiga ko'tarilishida qadimgi Misr, Bobil tibbiyoti, Gippokrat va Galenning muhim o'rni bor. Gippokrat kasalliklarni aniqlash, bemorning hayoti va faoliyatiga tashqi muhitning ta'sirini o'rganish, xastalikning kelib chiqish sabablarini topish va davolashda bemor organizmining o'ziga xos xususiyatlarini bilish kabi masalalar bilan shug'ullangan. Galen esa birinchi bo'lib organizmdagi a'zo va sistemalarning tuzilishi hamda funksiyalarini, asosan, hayvonlar (maymunlar) organizmida tajriba qilib o'rgangan.

112 Uning anatomiya va fiziologiyaga doir asarlari to XVI asrgacha tibbiyotning asosi bo'lib xizmat qildi.

O'rta asrda Abu Ali ibn Sino tibbiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning "Al-Qonun fit-tib" ("Tib qonunlari") asari ko'p asrlardan beri dunyo tibbiyotida asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Hozirgi kunda zamonaviy tilshunoslik muammolari odatda inson omili orqali ko'rib chiqiladi. Deyarli barcha kasblar ixtisoslashgan jargonlarga ega. Tibbiyot o'z noyob tili bilan bundan istisno emas. Tibbiyot tarixidan ma'lumki, bundan 2400 yil muqaddam Suqrotning shogirdi Aflotun shunday degan: "Juda katta xatolik sodir bo'lyapti: vujud va ruhiyat kasalliklarini alohida-alohida hakimlar davolayapti. Axir, vujud va ruh bir-biridan ajralgan holda emas-ku?!"

Haqiqatdan ham, hakimlar yaqin kunlarga qadar bemorni "taqsimlab" davoladilar. Natijada, kasallar katta kuch va vaqt sarf etgan holda davo topdi. Antroposentrik tilshunoslik yo'nalishi hisoblangan tibbiy lingvistika tibbiyot va psixologiya, tibbiyot va falsafa, tibbiyot va mantiq, tibbiyot va lingvistika uyg'unligida juda ko'plab muammolarga yakun yasamoqda.

Tibbiyotda mavjud bo'lgan va bemorlar uchun ishlatiladigan dori-darmonlar xususiyatlari, ta'siri, kasalliklar nomlari, shifokorlar nutqida uchraydigan ko'plab so'zlar bemorlar va ularning yaqinlari uchun tushunarsizdir. Chunki, tibbiy atamalarining deyarli ko'pchiligi lotin yoki ingliz tilidadir. Bugungi kunda tilshunosligimiz oldidagi dolzarb masalalardan biri milliy tibbiyot tilini yaratish masalasidir. Tibbiyot terminologiyasi dunyoda eng qadimgi maxsus atamalardan biri hisoblanadi. Bu leksikaning ixtisoslashgan sohasi tilshunoslik fanidir, u o'rganadi, tahlil qiladi va tavsiflaydi.

Dunyo tilshunosligida tibbiyot tili shakllanib bo'lgan, ularning maxsus terminologiyasi, tibbiy birliklar korpusi yaratilgan. Tibbiyot terminologiyasining asosini yunon-lotin tili tashkil etadi, tibbiyot tili ham yunon-lotin yadrosining natijasidir. [2. B.-348]

Tilimizdagi ayrim iboralarning etimologiyasi tibbiyotga borib taqaladi. Masalan, "sherdek yuragi bor" iborasi — eng qo'rqqon jonivor hisoblangan quyonning buyrakosti bezlari asosan, adrenal in ishlab chiqaradi, vahshiy hayvonlarniki esa noradrenalin ishlab chiqaradi. Bunaqa alomatlar odamlarda ham uchraydi. Masalan, yili sher bo'lgan odamda hissiyotli, asabiy taranglik vaqtida ko'p miqdorda noradrenalin ishlab chiqariladi. Bunaqa odamlar asabiy taranglik vaqtida o'zlarini bardam tutadilar. Ularda ichki imkoniyat zaxirasi kuchli bo'ladi. Bunaqa odamlarni "Sherdek yuragi bor" deyishadi.[3.B.-41]

Darhaqiqat, tilimizdagi ayrim iboralarning etimologiyasi tibbiyot bilan bog'liq. Buni yuqoridagi misol asosida ko'rdik. Shu o'rinda ham tilshunoslik va tibbiyot mushtarakligini ko'rishimiz mumkin.

Tibbiyot va tilshunoslik integratsiyaga kirishuvi ko'plab kasalliklarga oson davo usullarini topishga imkon yaratdi. Har qanday shifokor, tabib, muolajakor faqat bemor uchun ishlamasligi kerak va buni bemorga to'g'ri yetkazib bilishi lozim. Ibn Sino aytganidek: Biz uchta: men, sen va kasallik. Agarda men bilan sen birlashsak, albatta, kasallikni yengamiz, agarda sen kasallik yoniga tushadigan bo'lsang, unda men ojizman! [4.B.13.] Bu axborotli yondashuvdir. Axborotni to'g'ri yetkazib berish va uni qabul qilish juda muhimdir. Ibn Sino tabib, muolajakor, nafaqat, davokor bo'lmog'i, balki mohir notiq, kuchli pedagog bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi.

Bugungi kunda tibbiy birliklar leksikasining asosini yunon-lotin birliklari tashkil etadi. Ammo, yunon-lotin tilidagi tibbiy birliklarning milliy (o'zbekcha) varianti ham bor.

Tibbiyotda ishlatiladigan terminlarning ko'pchiligi bemorlar va ularning yaqinlari uchun tushunarsizdir. Bugungi kunda tilshunoslar oldidagi vazifalardan biri yo'qolib borayotgan noyob tibbiy birliklarni to'plash, Ibn Sino qalamiga mansub "Tib qonunlari" asaridagi ayrim tibbiy birliklarni leksik o'rganib shifokorlar va xalqqa lug'atlar, qo'llanmalar shaklida taqdim etishdir. Masalan, hozirgi kun tibbiyot termini hisoblangan "diabet", "qand" kasalligini olaylik. Bu kasallik "Tib qonunlari"da "shakar" kasalligi deb berilgan va izohi quyidagicha keltirilgan:

...tez-tez va ko'p siyish, doimiy chanqash, tutoqish, bemorning darmonsizligi va ba'zan bemorning gangrena kasalligiga muhtalo bo'lishi; bu kasallikda siydik tiniq, og'ir va mo'l bo'ladi. Bug'a aylangandan keyin qolgan quyqasi asaldan shirin ta'mga ega bo'ladi, tanada shakar miqdori oshib ketadi.[4.B.198]

Diabet—[yun.diabino-o'taman, o'tib ketaman]. Tibbiyotda kasalliklarning ko'p siydiradigan turlarining umumiy nomi. [4.B.9.]

Zamoviy tilshunoslik jadal rivojlanib borar ekan, soha lingvistikalarida ham qator ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, tibbiy lingvistik birliklar platformasi tashkil etilib, tibbiy birliklarning terminologik tizimi yanada boyitiladi. Bu orqali shifokor va bemorlarga lingvistik yordam beriladi.

"Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelaman. Kavkaz tomonda ko'p bo'ladi. Juba deyishadi, jurabi deyishadi. Oyim xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzundan-uzoq duo qiladi. Shundoq mehribon o'g'li borligini aytib qo'shnilarga maqtanadi. **Uning oyog'i kasal.**

Salqin tushishi bilan shishib ketadi, **og'riydi**. Qo'ni-qo'shnilar ahvol so'rasa, ularniyam, o'ziniyam yupatadi. – Ha, endi *keksalik-da*, o'rgilay. Lekin onamning **oyoq og'rig'i** faqat **keksalik**dan emas. Buni boshqalar bilmasa ham, men bilaman. Yaxshi bilaman. Bolaligimda ko'p **kasal** bo'lardim: **qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak...** Shuning uchun *oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi...* Ayniqsa, **tomoq og'rig'i** yomon qiynaydi. **Oyog'im xaxga tegishi bilan tomog'im og'rishga tushadi**. Oyoq bilan tomoqning nima aloqasi borligini haliyam tushunolmayman. O'shanda necha yoshligim esimda yo'q. Biroq juda kichkina edim. Bir kuni akalirim bilan yaxmalak o'ynab terlab ketdim. **Terlab** turib muz yedim. Kechqurun **isitma** ko'tarildi. **Quv-quv yo'talaman**. Oyim **tomog'imni achchiqtosh bilan chayib** ko'rdi, bo'lmadi, **turshak qaynatib suvini ichirdi**, bo'lmadi... Oxiri **tomog'im xippa bo'g'ilib** qoldi. Og'riqni sezmayman-u **nafas olishga qiynalaman**. **Hushimdan keta boshlaganimni** es-es bilaman. Qulog'im ostida onamning chirqillab yig'lagani, hadeb bir gapni qaytarayotgani eshitiladi:

– Voy, endi nima qilaman! Voy, bolam o'lib qoladi!

Keyin meni shosha-pisha ko'rpachaga o'radi. Bir mahal onamning qo'lida ketayotganim esimda bor. Gupillatib qor yog'ayotganini his etib turardim-u, biroq yuzimga qor tushmas edi. Onamning **issiq nafasi** urilib turar, u sirg'anib-sirg'anib borar, **og'ir hansirar** edi. Xira chiroq miltirab turgan allaqanday uyga kirdik. **Ko'z o'ngim yana qorong'ilashib** ketdi. Oyim hamon chirqillaydi.

– **O'lib qoladi! Bolaginam o'lib qoladi!**

– Vahima qilmang, poshsha, **dardni bergan Xudo, davosiniyam beradi**.

Bu Hoji buvining ovozi ekanini g'ira-shira idrok etdim. Hoji buvi boshimni tizzasiga qo'yib chalqancha qilib yotqizdi. **Doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi**. Ko'nglim ag'darilib, tipirchilaganicha yig'lardim, ammo Hoji buvining qo'lidan chiqib ketolmasdim. U tomog'imga nimadir qildi. Dod solib qo'lini tishlab oldim. Qiziq, birpasdan keyin ahvolim yengillashdi. Ko'zimni ochsam, Hoji buvi jilmayib turibdi.

– Nega tishlaysan, kuchukvoy? – dedi boshimni silab. Keyin tepamga oyim engashdi. U hamon hansirar, sochlari to'zg'ib ketgan, yuzi jiqqa ho'l edi. Birpasdan keyin qaddimni rostlab, tanchaga oyog'imni tiqib o'tirdim. Hoji buvi allaqanday **taxir suyuqlik** ichirdi. Keyin oyimga qaradi-yu, birdan xitob qildi.

– Voy poshsha-a! Nima qilib qo'ydingiz, tamom bo'psiz-ku! Oyim talmovsirab, goh menga, goh Hoji buviga qarar edi.

– Oyog'ingizdan ayrilibsiz-ku! – dedi Hoji buvi boshini chayqab. – Shu ahvolda qandoq keldingiz? Kavshandozda turgan oyimning kalishini endi ko'rdim. Kalishning ichi qorga to'la edi.

– Sarpoychan kelaveringizmi?! – dedi Hoji buvi hamon o'sha vahimali ohangda. – Endi nima qilasiz? **Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz, cho'loq bo'lib qolasiz**. Oyim tanchadan oyog'ini chiqardi. Ikkala oyog'i qip-qizil go'sht bo'lib ketgan edi.

– Sovuq yegani yo'q, – dedi sekin. – Qaytaga isib ketdi. Qorda o'zi isib ketarkan. Hoji buvi uning oyog'ini uqalab ko'rdi.

– Sezyapsizmi?

– Nimani? – dedi oyim oyog'iga emas, menga qarab.

– Qo'limni sezyapsizmi?

Oyim indamay bosh chayqadi-da, piqillab yig'lab yubordi. Ertasiga u **yotib qoldi**. Uzoq yotdi. Dadam bir joydan qarg'a otib keldi. Hoji buvi qo'lidan kelgancha dori-darmon qildi... Keyin oyim tuzaldi. Biroq **salqin tushishi bilan oyoqlari shishib, azob beradigan bo'lib qoldi...** Har yili dam olishga borganimda onamga gilam paypoq olib kelardim. U xuddi noyob narsaga ega bo'lgandek, uzoq duo qiladi, birpasda hamma qo'shnilariga ko'z-ko'z qilib chiqadi, shundoq "mehribon" o'g'li borligini aytib maqtanadi. Shunda qor gupillab yog'ib turgan mudhish kecha, onamning **qip-qizil go'shtga aylanib ketgan oyoqlari** ko'z o'ngimga kela-di-yu, indamay chiqib ketaman." [5.B.338]

O'tkir Hoshimov qalamiga mansub ushbu "Gilam paypoq" hikoyasi tibbiy mazmundagi badiiy asar bo'lib, asarda qator tibbiy metaforalar (**og'ir hansirash**), tibbiy paremiologik birliklar, tibbiy frazeologik birliklar (**hushidan ketmoq**), (**dardni bergan Xudo, davosiniyam beradi**) obrazli qilib berilgan. Hikoyada kasalliklarning o'zbekona nomlari, momolarimizning davo sirlari bilan bog'liq xalqona tabobat usullari (Bolaligimda ko'p **kasal** bo'lardim: **qizamiq, ko'kyo'tal, bezgak...** Shuning uchun *oshxonadagi mixda ko'k qarg'aning patidan tortib, gultojixo'rozgacha ilig'lik turardi; Quv-quv yo'talaman*. Oyim **tomog'imni achchiqtosh bilan chayib** ko'rdi, bo'lmadi, **turshak qaynatib suvini ichirdi; doka o'ralgan barmog'ini og'zimga tiqdi** (tomoq og'rigiga davo); **Qarg'aning miyasini chaqib surmasangiz** (oyoq og'rig'iga davo), **cho'loq bo'lib qolasiz**) bayon etilgan. Badiiy asardagi ko'plab tibbiy birliklar moslashuvli so'z birikmalaridir, qaratqich qaralmish munosabatidagi tibbiy birliklar ifodalanayotgan mazmunni aniq ochib beradi: **oyoq og'rig'i, tomoq og'rig'i, shifokor maslahati, kasallik varaqasi.....**

"Sotiboldining xotini og'rib qoldi. Sotiboldi kasalni o'qitdi – bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Tabib qon oldi. Betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'lib qoldi. Baxshi o'qidi. Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtlarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi. Shaharda bitta doktorxona bor. Bu doktorxona to'g'risida Sotiboldining bilgani shu: salqin, tinch parkda, daraxtlar ichiga ko'milgan baland va chiroyli oq imorat; shisha qabzali kulrang eshigida qo'ng'iroq tugmasi bor. Chigit po'choq va kunjara bilan savdo qiladigan xo'jayini Abdug'aniboy omborda qulab ketgan qoplar ostida qolib o'ladigan bo'lganida bu doktorxonaga bormay Simga ketgan edi. Doktorxona deganda Sotiboldining ko'z oldiga izvosh va oq podshoning surati solingan 25 so'mlik pul kelar edi. Bemor og'irlashdi. Sotiboldi xo'jayinining oldiga arzga bordi, ammo bu borishdan muddaosi nima ekanini aniq bilmas edi. Abdug'aniboy uning so'zini eshitib ko'p afsuslandi, qo'lidan kelsa hozir uning xotinini oyoqqa bostirib berishga tayyor ekanini bildirdi, keyin so'radi:

– Devonayi Bahovaddinga hech narsa ko'tardingmi? G'avsul a'zamga-chi? Sotiboldi ketdi. Bemorning oldidan jilmaslik va shu bilan birga tirikchilik uchun xonaki bir kasb qilishga majbur bo'ldi – har xil savatchalar to'qishni o'rgandi. U ertadan-kechgacha oftobshuvoqda gavronlar ichiga ko'milib savat to'qiydi. To'rt yashar qizchasi qo'liga ro'molcha olib, onasining yuzini karaxt, nimjon, xira pashshalardan qo'riydi; ba'zan, qo'lida ro'molcha, mukka tushib uxlab qoladi. Hammayoq jim. Faqat pashsha g'ing'illaydi, bemor inqillaydi; har zamon yaqin-yiroqdan gadoy tovushi eshitaladi: "Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo..." Bir kechasi bemor juda azob tortdi. U har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Qo'shnisi bir kampirni chaqirdi. Kampir bemorning to'zigan sochlarini tuzatdi, u yoq-bu yog'ini siladi, so'ngra... o'tirib yig'ladi.

– Begunoh go'dakning saharda qilgan duosi ijobat bo'ladi, uyg'oting qizingizni! – dedi. Bola anchagacha uyqu g'ashligi bilan yig'ladi, keyin otasining g'azabidan, onasining ahvolidan qo'rqib, kampir o'rgatgancha duo qildi:

– Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin...

Bemor kundan-kun battar, oxiri o'sal bo'ldi. "Ko'ngilga armon bo'lmasin" deb "chilyosin" ham qildirishga to'g'ri keldi. Sotiboldi to'qigan savatchalarini ulgurji oladigan baqqoldan yigirma tanga qarz ko'tardi. "Chilyosin"dan

bemor tetik chiqqanday bo'ldi; shu kechasi hatto ko'zini ochib, qizchasini yoniga tortdi va pichirladi:

– Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang.

Yana ko'zini yumdi, shu yumganicha qaytib ochmadi – saharga borib uzildi. Sotiboldi qizchasini o'lik yonidan olib, boshqa yoqqa yotqizayotganda qizcha uyg'ondi va ko'zini ochmasdan odatdagicha duo qildi: – Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin..."

Mohir so'z ustasi, so'zdan sariyog'dek foydalana oladigan Abdulla Qahhor qalamiga mansub yuqoridagi hikoya tilshunoslik va tibbiyot mustarakligini ko'rsatib beradi. Asar nomining o'zi tibbiyotga oid lug'aviy birlik bilan ifodalangan "Bemor" hikoyasi ham badiiyati, ham til xususiyatlari bilan anglatayotgan mazmun kitobxonning ich-ichiga kirib boradi. Ushbu badiiy matnda bola nutqi (Xudoyo ayamdi daydiga davo beygin), gadoy nutqi (Hey do'st, shaydullo banomi ollo, sadaqa raddi balo, baqavli rasuli xudo...), bemor nutqi (Xudo qizimning saharlari qilgan duosini dargohiga qabul qildi. Dadasi, endi tuzukman, qizimni saharlari uyg'otmang), bemorga qaragan shaxs nutqi, tabib nutqi keltirilgan bo'lib, har bir shaxs nutqida qo'llanildigan o'ziga xos leksika asar tilining ravonligini taminlagan. Hikoyani o'qish davomida o'zbek lisoni naqadar boy ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Matn boshida ijodkor tobi yoq insonga nisbatan-og'rib qoldi (Sotiboldining xotini og'rib qoldi) iborasini ishlatgan bo'lsa, asar davomida bemorlik holati graduonimik darajalanib boradi: kasal (Sotiboldi kasalni o'qitdi), betob (betobning ko'zi tinib, boshi aylanadigan bo'ldi), bemor (bemor og'irlashdi) va asar oxirida o'sal (bemor kundan-kun battar, oxiri o'sal bo'ldi) leksemasidan foydalanib, bu leksema orqali kishining endi tuzalmas dardga chalinganini ko'rsatib beradi. Matnda bemorlik holatini ifodalovchi so'zlar quyidagi birliklar bilan ifodalangan: Bemor og'irlashdi, bemor inqillaydi, bemor juda azob tortdi, bemor har ingraganda Sotiboldi chakkasiga burov solingan kishiday talvasaga tushar edi. Ushbu badiiy matnda xalqona davo usullaridan bemorga "Chilyosin" o'qitish ham keltirilgan bo'lib, bu marosim o'ziga xos qadim tarix va an'anaga ega.

So'z – buyuk qudrat, bir so'z bilan kasalni oyoqqa turg'izishingiz va bir so'z bilan uning hayotiga zomin bo'lishingiz mumkin, degan hikmatlar xalq orasida uchraydi. Bemor kishining huzuriga borganingizda chehrangizni yorug', tilingizni shirin qilib kiringki, u sizni ko'rib, sizdan madad olsin. "Masnaviyi ma'naviy" da bemorni

ko'rgani kirgan odamning kulgili holatini tasvirlaydigan shunday hikoya uchraydi:

Qulog'i eshitmaydigan bir odam qo'shnisining anchadan beri betob yotganini bilib qolibdi va uni ko'rib chiqsam savob bo'ladi degan fikrga kelibdi. Yo'l-yo'lakay o'zicha bemor bilan qanday suhbat qilishini o'ylab olibdi, men bemor qo'shnimdan "tuzalib qoldingmi" deb so'rayman, bemor "Ha, biroz durustman deydi", men "Xudoga shukr yaxshi bo'libdi deyman", yana "Qanday taomlar yeyapsan deyman", u qaysidir taomni aytsa, men "Bu taom senga yoqadi deyman", so'ng "Seni qaysi tabib davolayapti" deb so'rayman, u kimnidir aytadi, yana men "U o'z ishini mohir ustasi, unga ishonaver, u o'z ishini nihoyasiga yetkazadi deyman" degan fikrlar bilan, bemorni xafa qilmasdan uning ahvoli yaxshiligini unga aytaman deb fikr qilib, ammo uning gapini eshitmayman-ku deb, faqat bemorga sog'ayotgani haqida gapiraman degan o'ylov bilan qo'shnisi oldiga kiribdi. Ochiq chehra bilan kirgan "gulquloq" qo'shni bemor qo'shnisidan:

- Tuzalay deb qoldingmi qo'shnijon?
- Bemorning ahvoli og'irlashib turgan ekan:
- O'lay deb qoldim, ahvolim yomon, – debdi u.

Qulog'i gullagan qo'shni:

- Xudoga shukr yaxshi bo'libdi, debdi.
- Qanday taomlar yeyapsan?
- Yeganimning hammasi zaharday, og'zim ta'm bilmaydi, - debdi bemor.
- Ha, senga shu yoqadi, debdi *qulog'i og'ir* do'sti.

- Senga qaysi tabib qarayapti? - so'radi *qulog'ini gul bosgan* qo'shni.

- Azroil qarayapti, - debdi bemor jahl bilan.

Kar qo'shnisi esa, bemor qo'shnining ko'nglini ko'taraman deb:

- Ha, u o'z ishiga mohir, ishini oxirigacha yetkazadi, bunga ishonchim komil, - debdi va chiqib ketibdi. U chiqib ketgach, bemorning ahvoli og'irlashibdi.

Yuqoridagi matnda qulog'i eshitmaydigan, kar kasalligini *gulquloq*, *qulog'i gullagan*, *qulog'i og'ir*, *qulog'ini gul bosgan* kabi variantlari ishlatilganki, bu o'zbek tili lug'at tarkibining boyligini, ayrim kasallik nomlarining yumshatilgan

variantlari ko'pligidan dalolat beradi. Qissadan hissa shuki, bemor insonga gapirganda tilga ehtiyo bo'lib, unga dalda bo'ladigan so'zlarni aytish lozim bo'ladi. Bu haqda payg'ambarimiz Muhammad s.a.v. ham bemor bilan gaplashayotganda shirin so'zli bo'ling, deb aytganlar.

Darhaqiqat, tibbiyot terminologiyasi - bu turli mutaxassislikdagi shifokorlar gapiradigan til. Tibbiy tushunchalar o'quvchi va tinglovchiga tushunarli bo'lishi kerak. Tibbiy terminologiyada mavjud bo'lgan eng maqbul so'zlarni mutaxassislar ko'pchiligi tomonidan qabul qilingan, hamma uchun tushunarli bo'lgan, hodisa yoki obyektning mohiyatini aks ettiruvchi va tibbiy adabiyotlar, ma'lumotnomalarida mustahkamlangan so'zlar deb hisoblash kerak.

Dunyo tilshunosligida tibbiyot leksikasining turli qirralari, xususan, shifokor nutqi, sohaga oid terminlar bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Hozirda olimlar tibbiy atamalarni tarjima qilish muammosi bilan jiddiy shug'ullanmoqdalar. Ko'plab maxsus lug'atlar ishlab chiqilayotgan bo'lsa-da, ba'zida tibbiy atamani tarjima qilish qiyinchilik tug'diradi va tibbiyot sohasida yetarlicha bilimlarni talab qiladi. Tibbiy matnlarni tarjima qilishda tilning aniqligini hisobga olish, shu bilan birga, tushunchalar va atamalarni noto'g'ri talqin qilishga yo'l qo'ymaslik shart. Zero, tibbiy atamalar nafaqat tibbiyot xodimlariga, balki boshqa soha vakillariga ham alohida qiziqish uyg'otadi.

Yangi davr tilshunosligida qator soha lingvistikalari, jumladan, tibbiy lingvistika tarmog'i shakllanib, rivojlanib bormoqda. Jamiyat a'zolari orasida qo'llaniladigan, ayniqsa, shifokor va bemor muloqotidagi tibbiy birliklarga zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashish, yangi ilmiy-nazariy xulosalarga kelish, ularning leksik-semantik, uslubiy-funksional, lingvopragmatik, gender xususiyatlarini ochib berish muhimdir. Tibbiy birliklar leksik-grammatik shaklining xilma-xilligi, ulardagi hissiy bo'yoqdorlik/bo'yoqsizlik, variantlilik xususiyatlari va shu kabi jihatlarga e'tibor berish bugungi kunda tilshunoslikning dolzarb vazifalaridandir.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганининг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи"// 2019 йил, 21 октябрь// <http://uza.uz/oz/politics/>
2. Doncu, Andronache -2014. -B-348 .
3. Mahmud Hasaniy, Surayyo Karimova. Navoiy davri tabobati. –T.: Ibn Sino,1991.—B. 178.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. –T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi,1993. Elektron kitob. 3jildli saylanma. 1-jild.
5. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.—Toshkent-2015. -B. 338.

6. Abuzalova M., G'aybullayeva N. (2021) Peculiarities Of The Integration Of Linguistics And Medicine. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. Volume 27, Issue 1, Pages 828-832. https://cibg.org.au/article_7795.html.

7. G'aybullayeva N.I. "O'zbek tilida tibbiy evfemizmlar (tibbiy davriy nashr materiallari asosida)" Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Buxoro – 2019.

8. Abuzalova M., Islomova Sh. Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasi: tabobatda davo bilan bog'liq paremiologik birliklar.—B.: Durdona, 2021.—B. 44.

9. Islomova SH. Tibbiy lingvistika taraqqiyoti va ravnaqi//Tafakkur va talqin to'plami. -Buxoro, 2021.—B. 346.

10. Islomova Sh. Tibbiyot tili va tibbiy matnlarning xususiyatlari// ББК 94 Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». Выпуск №20 (том 3) Дата выхода в свет: 30.11.2021.

11. Islomova Sh. (2021)Tabobatda davo bilan bog'liq tibbiy paremiologik birliklar// Eurasian journal of academic research. Volume 1, Issue 1, Pages131-132. Zenodo.5752728

12. <https://avitsenna.uz>

13. <https://ziyonet.uz>